**“TASDIQLAYMAN”**
**Renessans ta’lim universiteti**
**rektori N.R.Barakayev**
________
“4” 09 ________ 2023-yil

**Renessans ta’lim universiteti**
**Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limining**
**2023/2024 o‘quv yili**
**ISH REJASI**

| t/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ullar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini o‘quv yilining semestrlar bo‘yicha bajarilishini o‘rganish. | Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejalarining o‘quv yilining semestr va o‘quv yili yakunlari bo‘yicha bajarilish holati tahliliy o‘rganiladi, natijalar bo‘yicha Universitet rahbariyatiga ma’lumot taqdim etiladi. | 2023/2024 o‘quv yili davomida, Semestr yakunida | Bo‘lim boshlig‘i B.Rajabov, bo‘lim mutaxassislari |
| 2. | Kuzgi va bahorgi semestrda an’anaviy va masofaviy dars jarayonlarini sifatli tashkil etilishini nazorat qilib borish. | Semestrlar davomida darslarning sifati tahlil qilinadi. Dars jarayonlari tahlili natijalari universitet kengashida muhokama qilib boriladi | 2023/2024 o‘quv yili davomida, muntazam | Bo‘lim boshlig‘i, bo‘lim mutaxassislari va ekspertlar guruhi |
| 3. | Semestrlar yakuni bo‘yicha talabalar o‘rtasida “O‘qituvchi talabalar nigohida” anonim so‘rovnomalar o‘tkazish. | Kuzgi va bahorgi semestr yakuni bo‘yicha va davriy ravishda talabalar o‘rtasida “O‘qituvchi talabalar nigohida” anonim so‘rovnomalar o‘tkazish orqali talabalar bilimini xolisona va adolatli baholanganligi, dars sifati, unga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi hamda o‘rganish natijalari universitet kengashiga muhokama uchun taqdim etiladi. | 2024-yil fevral, iyun oylarda, har semestrda bir marta | Bo‘lim boshlig‘i B.Rajabov, bo‘lim mutaxassislari |
| 4. | Universitetda sirtqi ta’lim jarayoni sifati, uning o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlanganlik darajasini o‘rganish. | 1. Sirtqi ta’lim jarayoni sifati va uning o‘quv-uslubiy ta’minotini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh tuziladi.<br>2. Sirtqi ta’lim yo‘nalishlarini o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlanganlik darajasi o‘rganiladi va tahlil qilinadi. | 2023/2024 o‘quv yili davomida | Bo‘lim boshlig‘i B.Rajabov, bo‘lim mutaxassislari va O‘quv uslubiy boshqarma. |

| t/r | **Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar** | **Amalga oshirish mexanizmi** | **Ijro muddati** | **Mas'ullar** |
|---|---|---|---|---|
| 5. | Universitetda mustaqil ta'limning tashkil etilganligini o'rganish. | Universitetda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishga oid sharoitlar (uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalarning mavjudligi, o'quv-laboratoriya xonalarining zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi va boshqalar, ulardan talabalarning foydalanishi uchun imkoniyatlarning yaratilganligi, ARMdagi sharoitlar, uning ish tartibi, kompyuter texnikalari va ularning internetga ulanganligi, ishlash tezligi, Wi-Fi zonalarining mavjudligini o'rganish, tegishli takliflar tayyorlanadi va Universitet o'quv ishlari prorektoriga taqdim etiladi. Belgilangan chora-tadbirlar ijrosi nazoratga olinadi. | 2023-2024 o'quv yili noyabr, aprel oylarda | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari va universitetning tegishli tarkibiy tuzilma rahbarlari |
| 6. | Kuzgi va bahorgi semestr yakuni bo'yicha talabalar bilimini baholash jarayonini tahlil qilish asosida reyting ballarining xolisligini, shaffofligini va sifat darajasini baholash. | Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari semestr yakuni bo'yicha (tanlash asosida) solishtirma jadvallar, sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi, takliflar tayyorlanadi va universitet rektoriga taqdim etiladi. | 2024-yil fevral-mart, may-iyun | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari, universitetning tegishli tarkibiy tuzilma rahbarlari |
| 7. | Professor-o'qituvchilar tomonidan dars mashg'ulotlarining o'tkazilish holatini tahliliy o'rganish. | Tajribali mutaxassislarni jalb qilgan holda va kafedra mudiri tomonidan ishlab chiqilib, universitet rektori tomonidan tasdiqlagan *reja asosida* professor-o'qituvchilar dars mashg'ulotlarining, jumladan ochiq mashg'ulotlar o'tkazilish holati o'rganiladi, ularning sifati va samarasiga e'tibor qaratiladi. O'rganish natijalari bo'yicha takliflar tayyorlanadi va universitet o'quv ishlari prorektoriga taqdim etiladi. | 2023/2024 o'quv yili davomida | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari, ekspertlar guruhi |
| 8. | Universitetda tahsil olayotgan iqtidorli talabalar bilan olib borilayotgan ishlar holatini o'rganish. | Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga, har xil tanlovlar, yosh olimlar ilmiy-amaliy loyihalari va ilmiy anjumanlarda ishtirok etishga qiziqtirish va jalb qilish ishlariga e'tibor qaratiladi. Iqtidorli talabalar haqidagi ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Universitetda tahsil olayotgan iqtidorli talabalar bilan olib borilayotgan ishlar holatini tegishli bo'lim, fakultetlar va kafedralar kesimida o'rganiladi. O'rganish natijalari bo'yicha takliflar tayyorlanib, | 2024-yil mart | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov va universitetning tegishli tarkibiy tuzilmalar rahbarlari bilan hamkorlikda |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| | | universitet rektoriga taqdim etiladi. Belgilangan chora-tadbirlar ijrosi nazoratga olinadi. | | |
| 9. | Kafedralar professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini o'rganish. | Kafedralardagi ilmiy salohiyat tahliliy o'rganiladi, universitet bo'yicha ma'lumotlar bazasi tayyorlanadi, tegishli takliflar tayyorlanib universitet rektoriga taqdim etiladi. | 2023/2024 o'quv yili oktyabr, mart | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari, universitetning tegishli tarkibiy tuzilma rahbarlari |
| 10. | Universitet ta'lim yo'nalishlari fanlarining o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasini ARM va kafedralar (fan dasturlari) kesimida o'rganish. | 1.Universitet ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasidagi fanlarning o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik holati ARM fondida mavjudligi o'rganiladi.<br>2.Yangi avlod o'quv adabiyotlarini bosqichma-bosqich tayyorlash bo'yicha reja ishlab chiqilishi muvofiqlashtiriladi va uning ijrosi nazoratga olinadi. | 2023/2024 o'quv yili oktyabr, aprel | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari, universitetning tegishli tarkibiy tuzilma rahbarlari |
| 11. | Professor-o'qituvchilarning tayanch ma'lumotlarini o'rganish. | 1.Professor-o'qituvchilarni tayanch ma'lumotini dars beradigan fanlariga mosligi tahlil qilinadi.<br>2.Professor-o'qituvchilarning tegishli qayta tayyorlashdan o'tganligi yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligi taxlil qilinadi va xulosalar Universitet rektoriga taqdim etiladi. | 2023/2024 o'quv yili oktyabr, mart | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari |
| 12. | Kadrlar iste'molchilarining fan dasturlari bo'yicha fikr-mulohazalarini o'rganish. | Kadrlar iste'molchilarining fikr-mulohazalari (asosiy ish beruvchilar kesimida, so'rovnomalar asosida) o'rganiladi | 2023/2024 o'quv yili davomida, may | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari, universitetning tegishli tarkibiy tuzilma rahbarlari |
| 13. | O'quv yili yakuni bo'yicha talabalar orasida anonim so'rovnomalar o'tkazish. | Universitetda ta'lim sifatini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan anonim so'rovnomalar o'tkaziladi, maxsus dasturlar orqali shikoyatlar qabul qilinadi va tegishli tartibda o'rganilib, zarur choralar ko'riladi. | 2024-yil May-iyun | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari |

| t/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| 14. | Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish borasidagi zamonaviy usullar va uslublardan foydalanish samaradorligini tahlil etish. | 1. Professor- o'qituvchilarning malakasini oshirganlik holati o'rganiladi.<br>2. Tanlanma asosida malaka oshirishdan o'tgan professor-o'qituvchilarning hisobotlari ko'rib chiqiladi.<br>3. Malaka oshirishning ilg'or tajribalari tegishli bo'linmalarda ommalashtiriladi. | 2023/2024 o'quv yili davomida | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari |
| 15. | Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini o'quv yili yakunlari bo'yicha bajarilishini o'rganish. | 1. O'quv yuklamalarining bajarilganligi haqidagi hisobotlarda "Vaqt me'yorlari"ga rioya qilinganligi tahlil qilinadi.<br>2. O'rganish natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlanadi.<br>3. Professor-o'qituvchilar shaxsiy ish rejalarining o'quv yili yakunlari bo'yicha bajarilish holati bo'yicha tahliliy ma'lumotlar universitet rahbariyatiga taqdim etiladi. | 2023/2024 o'quv yili davomida, iyun | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari universitetning tegishli tarkibiy tuzilma rahbarlari |
| 16. | 2023/2024-o'quv yili bo'yicha universitet professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini o'rganish. | Kafedralarda har bir professor-o'qituvchining ilmiy salohiyati maxsus KPI mezonlari asosida tahliliy o'rganiladi, universitet bo'yicha ma'lumotlar bazasi tayyorlanadi, tegishli takliflar tayyorlab universitet rektoriga taqdim etiladi. | 2024-yil iyun | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari |
| 17. | Universitetda o'quv jarayoni, ilmiy tadqiqot va ilmiy-uslubiy ish rejalarining bajarilishini monitoring qilish. | O'quv jarayoni, ilmiy tadqiqot va ilmiy-uslubiy ish rejalarining bajarilishi tahlil qilinadi. | 2024-yil iyul | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari |
| 18. | Bo'limning 2023/2024-o'quv yili yakuni bo'yicha ish rejasining bajarilishi haqida hisobot tayyorlash. | Bo'limning ish rejasini bajarilishi to'g'risida hisobot tayyorlanadi va Universitet rektoriga taqdim etiladi. | 2024-yil iyul | Bo'lim boshlig'i B.Rajabov, bo'lim mutaxassislari |

**Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i** **B.Rajabov**